SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QARSHIYEVA SHOXISTA XOLIQUL QIZI

INGLIZ TILIDA ERGATIV FE’LLARNING SEMANTIKASI VA VALENTLIGI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:811.512.133+81’33

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Qarshiyeva Shoxista Xoliqul qizi
Ingliz tilida ergativ fe’llarning semantikasi va valentligi.....3

Karshieva Shokhista Kholikul kizi
Semantics and valency of ergative verbs in English.....27

Каршиева Шохиста Холикул кизи
Семантика и валентность эргативных глаголов в английском языке.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published work
Список опубликованных работ.....54

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QARSHIYEVA SHOXISTA XOLIQUL QIZI

INGLIZ TILIDA ERGATIV FE’LLARNING SEMANTIKASI VA VALENTLIGI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/Fil4591 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Sulaymonova Nilufar Jabborovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Davlatova Muhayyo Hasanovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “27” noyabr soat 10⁰⁰dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel. (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (66780-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel. (99866) 234-29-36; e-mail:info@samdchti.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “6” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “6” noyabr dagi №66-raqamli reyestr bayonnomasi)

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahon tilshunosligida fe’lning struktur va semantik xususiyatlarini shakllantiruvchi omillarni anglashga qaratilgan yondashuvlar ko‘lami kengayib bormoqda. Jumladan, fe’l semantikasidagi nomuvofiqliklarni belgilash uchun kognitiv yondashuv o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, bunda voqea-hodisalar kechimi tafakkur va uni idrok etish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham fe’l tarkibini grammatik, leksik, struktur, semantik sathlaridagi farqlanishlar, qoidadan mustasno holatlarni aniqlashda kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv fe’ldagi o‘timlilik, o‘timsizlik xususiyatlarini asosiy omillarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, ergativ fe’llarning valentlik xususiyatlari boshqa fe’l xususiyatlaridan farqlanishi, ularning leksik-semantik tarkibi va gap tarkibidagi funksional imkoniyatlarni ochib berilishi mazkur ishning dolzarbligini belgilab berdi.

Dunyo tilshunosligida fe’l sistemasining vazifalari, struktur-semantik munosabatlari, leksik-grammatik derivatsion jihatlari, nutqiy tuzilmalarni faollashtiruvchi muhim manbalaridan biri sifatida o‘rganilmoqda. Leksik-grammatik sathni tashkil etishda fe‘llarga xos paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari, ulardagi o‘timlilik, o‘timsizlikning o‘zaro munosabati tabiati, fe’l semantikasidagi o‘zgarishlarni aniqlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ergativ fe’llar turkumi boshqa fe’llar guruhidan farqli ravishda ochiq tizimni tashkil qilishi sababli, ushbu qatordan o‘rin oladigan murakkab tarkibli hodisa sifatida funksional-semantik mavqesini tadqiq qilish zarurati mavjud.

Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining asosiy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilib, ingliz tili sintaksisi, semantikasi va valentligi masalalari ingliz tilida ergativ fe’llarda va tuzilmalarda o‘z ifodasini topishi va turli talqinlarda namoyon bo‘lishi kabilarni tadqiqot qilish dolzarb muammolardan biri ekanligini isbotlaydi. Ergativ fe’llarni semantik xususiyatlarini asosiy grammatik konstruktsiyalarda, maqolalar va asarlarda ergativ fe’llar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur tadqiq etish zaruratini tug‘diradi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”[1] masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. №209 (7439).

Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, mazkur sohaga oid boshqa farmon va qarorlar, shuningdek, me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida fe’lning funksional maqomini kognitiv asosini belgilash, ayniqsa fe’lning semantik va valentlik xususiyatlarini aniqlash masalasi uzoq yillardan buyon yetakchi ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, fe’lning leksik-semantik tuzilishi, argument strukturasi va konseptual asoslarini yoritishda Yevropa va Amerika tilshunoslari R.Jekendof, V.Evans, R.Langaker, L.Talmi, J.Lakof, B.Levin, M.Shibatani, B.Komri, J.Pusteyovskiy[2] kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda fe’lning semantic rollari, harakat va holatni ifodalash mexanizmlari, shuningdek, fe’l va ishtirokchilar o‘rtasidagi kognitiv bog‘liqlik masalalari atroflicha yoritilgan. Fe’llarning o‘timlilik va o‘timsizlik xususiyatlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan ergativlik hodisasi R.Dikson, O.Yesperson, M.Alan, J.Layons, Ch.Filmor, R.Hovav, V.Kroft, A.Kibrik, A.Letuchiy, I.Meshaninov, V.Vinogradov, N.Arutyunova, E.Moravcsik[3] kabi olimlarning tadqiqotlarida turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan.

[2] Jackendoff R. Semantic Structures. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1990. – 283 p., Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 477 p.; Evans V. The Structure of Time: Language, Meaning and Temporal Cognition. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2004. – 363 p.; Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. – California: Stanford University Press, 1991. – 489 p.; Talmy L. Lexicalization patterns: Semantic structure in lexical forms. In T. Shopen (Ed.) // Language typology and syntactic description, 1985. №3. – P. 57-149.; Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 720 p.; Levin B. English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 366 p.; Shibatani M. On the conceptual Framework for Voice Phenomena // Linguistics, 2006. №44/2. – P. 217-269.; Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. – University of Chicago Press, 1989. – 264 p.;Pustejovsky J. *The Generative Lexicon.* – Cambridge: MIT Press, 1995. – 312 p.

[3] Dixon R.M.W. Ergativity. – Cambridge University Press, 1994. – 271 p.; Jespersen O. A modern English grammar on historical principles // Syntax III. – Heidelberg: C. Winter, 1930. №2. Ch.16.4. – P. 196-203.; The Philosophy of Grammar. – University of Chicago Press, 1924. – P. 31-133.; Alan M. Labile verbs in English. – Stockholm University, 2006. – 232 p.; Lyons J. Introduction t theoretical linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – P. 343-361.; Fillmore Ch.J. The Grammar of Hitting and Breaking. In R. A. Jacobs & P. S. Rosenbaum (Eds.) – Readings in English Transformational Grammar, 1970. – P. 89-133.; Hovav R.M., Levin B. Building Verb Meanings. In: Miriam Butt and Wilhelm Geuder eds. – Stanford: CSLI Publications, 1998. – P. 97-134.; Croft W. Functional grammar and Typology: Systematic typology and the analysis of language. – Oxford University Press, 2001. – P. 55-78.; Radical Construction Grammar: Syntactic Theory in Typological Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 41-80.; Кибрик А. Е. Материалы к типологии эргативности. – Moscow: Nauka, 1992. – P. 42-58.; Летучий.А.Б Типология лабильных глаголов. Москва: Языки славянской культуры, 2013. – 408 с.; Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. – Л.: Наука, 1978. – 387 с.; Виноградов В.В. Лексикология русского языка. – Москва: Наука, 1972. – 384 с.; Арутюнова Н.Д. Логика и лингвистика. Анализ языковых значений. – Москва: Наука, 1976. – 368 с.; Moravcsik E.A. On the distribution of ergative accusative patterns // Lingua. – 1978. №45. – c. 233-279.

Ularning ishlarida ergativ fe’llarning semantik tuzilishi, valentlik imkoniyatlari, kauzativlik bilan aloqasi hamda argumentlarning sintaktik taqsimlanishi masalalari chuqur tahlil qilingan.

Rus lingvistik maktabida fe’l semantikasi va valentligi masalalari funksional-semantik va kognitiv yondashuvlar asosida rivojlangan. E.Paducheva, A.Bondarko, Yu.Apresyan, I.Melchuk, N.Arutyunova, A.Reformatskiy, M.Baxtin, S.Barxudarov[4] kabi olimlarning ilmiy ishlari fe’lning semantik strukturasini, leksik ma’nolarining tizimliligini hamda valentlik munosabatlarini aniqlashda olib borgan tadqiqotlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz. Bu tadqiqotlar ergativlik hodisasini umumiy fe’l semantikasi doirasida talqin qilish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratgan.

O‘zbek tilshunosligida fe’lning struktur-semantik xususiyatlari, valentlik va ergativlik bilan aloqador jihatlari A.Hojiyev, S.Muhammedova, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, M.G‘apporov, R.Qosimova, M.Sulaymonova, A.Musayev, A.Azimov, M.Alimova, Z.Rasulov, E.Musayev, R.Asadov, B.Rizayev, G‘.Mirsanov[5] kabi tilshunoslarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda fe’lning sintaktik va semantik imkoniyatlari, kauzativ-antikauzativ munosabatlar, fe’lning funksional vazifalari va fe’lning sintaktik valentligi kabi masalalari o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili va tarixi grammatikasining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq

---

[4] Падучева Е.В. Семантические исследования: семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 293 с.; Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики: субъектность, объектность, коммуникативная перспектива высказывания, определенность, неопределенность. – Санкт-Петербург: Наука, 1992. – 303 с.; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. – Москва: Изд-во «Наука», 1974. – 366 с.; Мельчук И.А. Толково-комбинаторный словарь русского языка: опыт семантико-синтаксического описания лексики. – Вена: Wiener Slawistischer Almanach, 1984. – 544 с.; Арютюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект-пресс, 2004. – 536 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 368 с.; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка – Москва, – 1966. – 199 с.; Пустежовский Ж. *The Generative Lexicon.* – Cambridge: MIT Press, 1995. – 312 p.

[5] Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 368 с.; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка – Москва, – 1966. – 9-10 с.; Hojiyev A. Fe’l. – Toshkent: Fan, 1970. – 184 b.; Muhammedova S.X. O‘zbek tilida yo‘nalma harakat fe’llarining predikativligi va valentligi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 1999. – 209 b.; Рахматуллаев Ш. *Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. Автореферат канд. дисс. — М., 1952. — 16 стр.*, 1952. – 180 b.; Mahmudov N. O‘zbek tilida fe’l kategoriyalari. – Toshkent: Fan, 1984. – 220 b.; G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. O‘quv qo‘lanma. – Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2010. – P. 259-260.; Sulaymonova M.O. Fe’l so‘z turkumi va uning leksik-semantik tasnifi // “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodological Journal. – FarDu, 2021. №6. – B. 187-190.; Musayev A. Causative verbs in English and Karakalpak Languages // Актуальные вопросы лингвистики и преподавания иностранных языков: достижения и инновации, 2024. №1. – С. 339-342.; Azimov A. Practical grammar: Tense and Voice. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi “Nasaf NMIU, 2021. – B. 220-239.; Alimova M.X., Rasulov Z.I. Comparative typology of the English and Uzbek Languages. – Bukhara: “Durdona”, 2022. – 350 p.; Musayev E.X. O‘zbek va rus tillarida fe’l semantikasining chog‘ishtirma tadqiqi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.; Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarining sintaksem tahlili: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 53 b.; Ризаев Б.Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквампефектных форм немецкого глагола. – Самарканд: СамГИИЯ, 2003. – 89 с.; Mirsanov G‘.Q. Ingliz va o‘zbek tillarida yurish-harakat fe’llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2009. – 21 b.

“Xorijiy tillarni o‘qitishning lingvometodik tamoyillari va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar” nomli mavzu doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi ergativ fe’llarning tasnifiy, semantik va valentlik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning o‘timli va o‘timsiz konstruksiyalarda namoyon bo‘ladigan argument strukturasini ergativ alternatsiya asosida tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiyada qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

ingliz tilida ergativlik tushunchasining nazariy-lingvistik mohiyatini va ergativ fe’llarning o‘timlilik va o‘timsizlik xususiyatlarini aniqlash;

ingliz tilidagi ergativ fe’llarning qo‘llanish doirasi va kontekstual-semantik xususiyatlarini aniqlash;

ingliz tili ergativ fe’llarini leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra tasniflash va ularning sintaktik xususiyatlarini belgilash;

ingliz tili ergativ fe’llarining ontologik xususiyatlari, valentlik imkoniyatlari va argument strukturasining ergativ alternatsiyada namoyon bo‘lishini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilidagi ergativ fe’llar hamda ularning funksional xususiyatlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ingliz tilidagi ergativ fe’llarning tasnifiy turlari, ularning semantik va valentlik xususiyatlari, ergativ alternatsiya jarayonida argument strukturasining semantik va sintaktik jihatdan o‘zgarishi hamda ushbu jarayonning kognitiv-semantik xususiyatlaridan tashkil topadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda deskriptiv, struktur, distributiv, kognitiv, diskursiv, tasniflash metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda iborat:

ingliz tilidagi ergativ fe’llar tarixiy taraqqiyoti nazariy talqinlari tizimlashtirilib, ularning leksik-sintaktik tabiati (ergativ alternatsiya, argumentlararo munosabati) asosida ularni anakkuzativ, kauzativ va unergativ fe’llardan farqlash mezonlari, ya’ni o‘timli-o‘timsiz konstruksiyalardagi argument munosabati, yagona argumentning semantik-sintaktik maqomi ishlab chiqilgan;

ergativ fe’llarning o‘timlilik va o‘timsizlik xususiyatlari mohiyati, ya’ni o‘timsiz fe’llar (bitta argumentni tanlash), o‘timli fe’llar (ikkita argumentni tanlash) orqali tarkiblanishi va ularning ergativ alternatsiya bilan bog‘liqligi aniqlangan;

ergativ fe’llarning valentlik xususiyatlari, monovalent va polivalentlik imkoniyatlari sintaktik va semantik argumentlar, fe’lning semantikasi hamda nominativ birliklarning leksik ma’nosiga ko‘ra o‘zgarishi va farqlanishi dalillangan;

ergativ fe’llarni ontologik (substantlarning ichki tabiatiga bog‘liq xususiyatlari), argumentlarining tematik rollari, predikatning konstruktiv-sintaktik realizatsiyasi semantik va kognitiv asos bilan aloqadorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filologiya fakulteti yuqori kurs talabalari hamda magistrantlari uchun ingliz tilini o‘qitish amaliyotidagi nazariy grammatikaning dolzarb masalalari, kognitiv tilshunoslik bo‘yicha maxsus kurslarda ingliz tilidagi ergativ fe’llarni valentlik darajasi, semantik guruhlar, sintaktik konstruksiyalar va pragmatik kontekstda qo‘llanishi imkoniyatlari tavsiya etilgan;

ingliz tilida ergativ fe’llarning semantik guruhlari (masalan, holat o‘zgarishi, harakat o‘zgarishi), valentlik masalalari (monovalent, polivalent) va substantlarning ontologiyasi bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish bilan bog‘liq sintaktik modellari taqdim etilgan, shuningdek, ishda ochib berilgan fe’lning valentlik darajasi kompyuter lingvistikasida avtomat tarjima uchun asos bo‘lishi mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tasniflanishi, aniq lingvistik metodlar orqali tahlil qilishga asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, aniq badiiy asarlardan misollar yig‘ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o‘zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tili adabiy me’yorlari, kognitiv tilshunoslik, nazariy grammatika, leksikologiya, qiyosiy tipologiya hamda tarjimashunoslik bo‘yicha nazariy manba, darslik, o‘quv qo‘llanmalarni yaratishga xizmat qilishi, tadqiqotning xulosalari va natijalaridan ilmiy maqolalar, falsafa doktori (PhD) va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalar “Umumiy tilshunoslik”, “Nazariy grammatika”, “Leksikologiya”, “Tarjima nazariyasi”, “Tipologiya”, “Kognitiv tilshunoslik” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va darsliklar, lug‘atlar, ma’ruza matnlarini yaratishda ingliz tili misolidakeltirilgan ma’lumotlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tili ergativ fe’llarining semantikasi va valentligi tadbiq etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tili ergativ fe’llarning tarixiy taraqqiyoti tahlili, lingvistik yondashuvlari asosida ularning leksik-grammatik tavsifini tahlili natijalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 19-noyabrdagi 04/6389-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha doirasida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ingliz tili ergativ fe’llarni ontologik (substantlarning ichki tabiatiga bog‘liq xususiyatlari), argumentlarining tematik rollari predikat shakli o‘zgarishi bilan aloqadorligi ochib berilishi borasidagi tadqiqot natijalaridan loyiha doirasidagi “Academic English” kursida samarali qo‘llanilgan.

ingliz tilidagi ergativ fe’llarning semantik va valentlik xususiyatlari, ularning tranzitiv va intranzitiv konstruksiyalarda qo‘llanish imkoniyatlari, semantik rollari, argument tuzilishi hamda subyekt va obyekt munosabatlarini aniqlashtirishga oid tadqiqot natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion grant loyihasi

doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 8-sentabrdagi 4/4098-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilidagi ergativ fe’llarning semantik guruhlari, valentlik imkoniyatlari, argument tuzilishi hamda kontekstual qo‘llanish xususiyatlariga oid tadqiqot natijalaridan loyiha doirasida samarali foydalanilgan.

ergativ fe’llarning valentlik xususiyatlari sintaktik va semantik argumentlar o‘rtasida faol fe’l, passiv qism, gerund, nominativ birlik sifatida farqlanish imkoniyatlari borasidagi natijalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Badiiy kengashi hisobot yig‘ilishida, yosh tarjimon to‘garagi va adabiy kechalarda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 24-oktabrdagi 01-06-/997-son ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy loyiha ishining mazmuni yangi materiallar va loyiha ishlanmalari bilan boyitildi.

ingliz tilidagi ergativ fe’llarning semantik xususiyatlari, ularning valentlik imkoniyatlari, sintaktik va leksik-semantik o‘ziga xosliklari, shuningdek ergativlik hodisasining zamonaviy tilshunoslikdagi talqini yuzasidan bildirilgan ilmiy fikr va ilmiy yangiliklar, xususan, ingliz tilidagi ergativ fe’llarning o‘timli va o‘timsiz shakllarda qo‘llanilish jihatlari, ularning valentlik xususiyatlari sintaktik va semantik argumentlar o‘rtasida faol fe’l, passiv qism, gerund, nominative birlik sifatida farqlanish imkoniyatlari “Qashqadaryo viloyati teleradiokanali” DMning “Oltin voha” radiosi “Ochiq muloqot” eshittirishi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Qashqadaryo viloyati teleradiokanali” DM 2025-yil 20-dekabrdagi 17-05/197-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy fikr va xulosalar loyiha ishlanmalarining boyitilishiga xizmat qildi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar mazkur loyihani amalga oshirishda va uning bevosita amaliyotda qo‘llanilishiga xizmat qildi.

Qarshi davlat texnika universiteti “60410200–Buxgalteriya hisobi” va “60410600–Bank ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv jarayonida “Xorijiy til” (ingliz tili) fanidan amaliy dars mashg‘uloti jarayonida, mustaqil ta’limni tashkil etish va nazorat savollarini tuzishda “English-Uzbek dictionary of ergative verbs” nomli ingliz-o‘zbek izohli lug‘atidan foydalanilgan (Qarshi davlat texnika universiteti 2025-yil 30-dekabrdagi 4059 malumotnomasi). Natijada, talabalarning xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuvchanligi o‘quv jarayonida samarali natija bergan.

ingliz tili ergativ fe’llari o‘timlilik va o‘timsizlik xususiyatlarining mohiyati, ya’ni o‘timsiz fe’llar (bitta argumentni tanlash), mono o‘timli (ikkita argumentni tanlash), ikki o‘timli (uchta argumentni tanlash) tarkibi bilan bog‘liq vazifalari dissertatsiyaning ilmiy natijalari va materiallaridan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida Xalq ta’limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 156-son buyrug‘i asosida 2023-2024-yillarda bajarilishi nazarda tutilgan Al-201704-sonli “Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2025-yil

24-oktabrdagi 03-17-09-982-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy metodik tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qildi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 6 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 5 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Ingliz tili ergativ fe’llarini o‘rganishning nazariy asoslari” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi faslida ergativlik atamasi va ushbu xususiyatli fe’llarning semantik tarkibi borasidagi nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlilga tortilgan.

Ma’lumki, so‘ngi asrning boshlarida zamonaviy tilshunoslikda ergativlik atamasi keng qo‘llana boshladi. Natijada, u murakkab diskriptiv vazifa sifatida tipologik izlanishlarni ham qamrab oldi. Tilshunoslikning nazariyalariga oid tushunchalar orasida ergativlik atamasini markaziy maydonga kirishiga N.Xomskiy va R.Dikson[6] kabi olimlarning asarlari sabab bo‘ldi. R.Dikson ta’kidlashicha, “ergativlik tushunchasi umumiy qabul qilingan ma’nosiga ko‘ra, o‘timsiz bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi ega hamda xuddi shu tarzda o‘timli bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi to‘ldiruvchi vazifasida (o‘timli bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi egadan farqli o‘laroq) kelishini ifodalovchi grammatik birlik sifatida tahlil qilinadi”[7]. Ko‘rinadiki, ergativlikning umumiy tushunchasi sifatida fe’lning o‘timsiz xususiyati qatnashgan gapdagi ega vazifasidagi birlik hamda o‘timli bo‘lak qatnashgan gapdagi to‘ldiruvchi vazifasida ishtirok etgan nominativ birlikka yo‘naltirilgan harakati tushiniladi.

[6] Chomsky N. Aspects of the theory of Syntax. – MIT Press, 1965. – 306 p.; Dixon R.M.W. Ergativity // Language -*55*. – Illinois: Linguistic Society of America, 1979. – P. 59-138.

[7] Dixon R.M.W. Ergativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 271 p.

E.Moravcsik ergativ va ergativ bo‘lmagan birliklarning tillararo lingvistik taqsimoti haqida izlanishlar olib borgan[8]. Bundan tashqari, T.Nikolas dunyodagi ba’zi tillar o‘rtasidagi murakkabliklarning geografik tarqalishini ko‘rib chiqdi[9]. Shu asosda u ergativ fe’llar faollashadigan tillar tasnifini amalga oshiradi. Ta’kidlash lozimki, bir qator tilshunos olimlar, xususan, E.Moravcsik hamda T.Nikolas kabilar ergativ va unergativ dunyo tillari orasida tarqalganini lingvistik va geografik jihatdan o‘rganib chiqib, ular ustida izlanishlar olib borganligi ergativlikka xos xususiyatlar ustida yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borishga undadi.

R.Dikson fikricha, ergativlik atamasi ilk bor ot so‘z birikmalarining tarkibiy qismlarini kelishik belgilari bilan belgilash uchun ishlatilgan: “ergativ” – o‘timli bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi eganing kelishigini belgilovchi birlik sifatida dastlab “nominativ” deb atashgan, ammo hozirda “absolyutiv” ma’nosida o‘timsiz bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi ega va o‘timli bo‘lak qatnashgan gapning to‘ldiruvchisini belgilovchi birlik sifatida qaraladi[10].

Xususan, R.Diksonning quyidagi ta’rifi ham fikrimiz isboti bo‘la oladi: “Ergativ” atamasi keng ma’noda sintaktik jihatdan, bog‘langan qo‘shma gap (coordination) va ergashgan gaplar (subordination) orqali murakkab gaplarni yasashda muhim ahamiyat kasb etuvchi grammatik birlik sifatida talqin etiladi[11]. Olimning qayd etishicha, ba’zi tillarda aksariyat fe’llar o‘timli yoki o‘timsiz holatda bo‘lishi tabiiy, boshqa tillarda esa deyarli barcha fe’l guruhiga mansub so‘zlar o‘timlilik qiymatiga ega bo‘lishi mumkin.

A.Artemis va K.Tibor ergativlikka xos 3 ta xususiyat haqida ma’lumot beradilar. Ergativlikni o‘rganish quyidagi xususiyatlarning bir yoki bir nechtasini o‘zida namoyon qiladigan tillardagi uslublar bilan bog‘liq quyidagi jadval taqdim etiladi.

1-jadval.

Ergativlikka xos xususiyatlar

Ergativ xususiyat	**Absolyutiv xususiyat**	**Argument-strukturaviy (predikatga bog‘langan sintaktik-semantik ishtirokchi) xususiyat**
Ega nuqtai nazaridan, o‘timli bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi ega ba’zi grammatik qoidalar asosida o‘timsiz bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi egadan farqli ravishda munosabatga kirishadi.	To‘ldiruvchi nuqtai nazaridan, o‘timli bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi to‘ldiruvchi va o‘timsiz bo‘lak qatnashgan gap tarkibidagi ega ba’zi grammatik qoidalar asosida bir xil munosabatga kirishadi.	Ega nuqtai nazaridan, tushum kelishiksiz shakldagi fe’l qatnashgan gapning egasi ba’zi grammatik qoidalar asosida o‘timli fe’l hamda unergativ (agensli) shakldagi gapning tarkibidagi egadan farqli ravishda munosabatga kirishadi[12].

[8] Moravcsik E. On the distribution of ergative accusative patterns // Lingua. – Amsterdam: North-Holand Publishing company, 1978. №45. – C. 233-279.
[9] Nicholas T.I. Handbook of WA Aboriginal languages south of the Kimberley Region. – Canberra: Pacific Linguistics, 1993. – P. 45-78.
[10] Dixon R.M.W. Ergativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 271 p.
[11] Dixon R.M.W. Ergativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 271 p.
[12] Tibor K., Artemis A. Syntax – theory and analysis: an international handbook. – Berlin, 2015. – 656 p.

Ergativlik xususiyatlari sintaktik sathga tegishli, keng ma’noda ergativlik mavjud bo‘lgan tillar orasida sintaktik va morfologik xilma-xillik mavjudligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, ergativlik nazariyalari ushbu xilma-xillikni boshqarish vazifasini bajaradi va qaysidir ma’noda bu nazariyalar ergativ tillardagi xilma-xillikni bashorat qiladi.

Bobning “Gapning konstruktiv tarkibiy tuzilmasi, unda kesimning o‘rni va tranzitivlik va intranzitivlik xususiyatlari” nomli ikkinchi faslida gapning konstruktiv tuzilmasi doirasida o‘timlilik/o‘timsizlik masalalari tahliliga e’tibor qaratilgan. M.G‘apporov va R.Qosimovaning ta’kidlashicha, ingliz tilida fe’lning asosiy grammatik belgisi kesim hisoblanadi. Ularning fikricha, “kesim fe’l orqali ifodalanganda, u gapning markaziy bo‘lagi sifatida boshqa bo‘laklarni boshqaradi”[13]. Bu fikrlar ergativ fe’llar mazmunini tushunishda muhim, chunki ergativ fe’llar aynan kesimning boshqaruv xususiyatini o‘zgartiruvchi fe’l hisoblanadi.


Tranzitivlik va intranzitivlik haqida so‘z borar ekan, bevosita o‘timli va o‘timsiz fe’llar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Umuman olganda, ba’zi tilshunoslarning fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, avvaliga ergativlikni umumiy tarzda aniqlab, so‘ngra zamonaviy ingliz grammatikasida ergativ fe’llar va ularga xos konstruksiyalarni o‘rganish rejasini belgilaydi. Ingliz tilidagi ergativ fe’llarni tahlil qilishdan oldin, tranzitivlik va intranzitivlik tushunchalarini qisqacha tushunish zarurligi ta’kidlanadi. J.Layons tranzitivlikni ega va to‘ldiruvchi yoki maqsad o‘rtasidagi harakat sifatida ta’riflagan (masalan, “*I hit you” – “Men seni uraman”*). Holbuki, u bu ta’rifni *“I see you” – “Men seni ko‘raman”* kabi misollar bilan tanqid qilish mumkinligini ko‘rsatadi, bu yerda munosabat harakatni emas, ko‘proq sezish tajribasini ifodalaydi. Bu nuqtai nazardan, J.Layons tranzitivlikni sintaktik jihatdan ta’riflab, tranzitiv fe’llar ikki o‘rinli kesimlar ekanligini, ya’ni ular sintaktik tuzilishda ikkita argument (ot, olmosh) talab qiladi, deb ta’kidlagan[14]. B.Levin tranzitiv fe’llarni “*agent-patient*” (agens-patsiens) fe’llar deb atagan[15]. Asosiy tranzitiv konstruksiyasida vositasiz to‘ldiruvchi (tushum kelishigidagi so‘z bilan ifodalanadi) o‘timli fe’l kesimga bog‘lanib keladi va harakat bevosita yo‘naltirilgan obyektni ko‘rsatadi. Aniqroq qilib aytganda, tranzitivlik – tilshunoslikda fe’llar va ularning argumentlari o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi asosiy tushuncha bo‘lib, ayniqsa, fe’llarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchi bilan qanday munosabatda bo‘lishini o‘rganadi. Tranzitiv fe‘llar to‘ldiruvchi bilan o‘zaro aloqalariga asoslanib turlarga bo‘linadi. Masalan, ba’zi fe’llar o‘z obyektlarining holatini o‘zgartiradi (masalan, *build, kill*), boshqalari esa obyektni harakatlantiradi yoki yaratadi (masalan, *bring, form*) va obyektni o‘zgartirmaydi.

Bobning “Ergativ fe’llar, anakkuzativ va harakat fe’llari” nomli uchinchi faslida ingliz tili ergativ fe’llariga nisbatan yondashuvlarda fe’llarning semantik

[13] G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. O‘quv qo‘lanma. – Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2010. – 336 b.
[14] Lyons J. Introduction t theoretical linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 547 p.
[15] Levin B. English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 366 p.

tarkibiy qismiga murojaat qilindi. Jumladan, ergativ fe’llarni aniqlashda bir o‘rinli kesimlarning sintaktik transformatsiya yordamida o‘timli fe’llarga aylanishi e’tiborga olindi. Bu transformatsiyaga tushadigan fe’llar “ergativ” yoki “unergativ”, yoki “agens fe’llar”[16] deb nomlanadi. Ular agens tomonidan bajariladigan har qanday faoliyatni bildiradi va o‘z ichiga “muloqot fe’llari” (masalan, to talk, to speak, to announce, to say, …), “faoliyat fe’llari” (masalan, to complete, to dance, to act, to perform, …) yoki “jarayon fe’llari” (masalan, to cough, to yawn, to breathe, …) kabi turli xil fe’llarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, “kauzativ transformatsiya”[17] yoki “kauzativlashtirish jarayoni”[18] kabi har ikki konstruksiya ham intranzitiv va tranzitiv, ya’ni o‘zaro sintaktik-semantik jihatdan ekvivalent bo‘lishi aytiladi.[19]

Umuman olganda, ergativ fe’llarni tasavvurimizda gavdalantirish uchun Venn diagrammasi orqali sodda ko‘rinishda ifodalash mumkin:



1-diagramma. Ergativ fe’llarning Venn diagrammasida ifodalanishi

Ta’kidlash joizki, ingliz tilidagi anakkuzativ fe’llar ham o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari orqali murakkab sanaladi.

Ingliz tilidagi anakkuzativ fe’llarning leksik-semantik guruhlarda faollashuvini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- holat o‘zgarishini ifodalovchi fe’llar: “break” (sindirmoq), “melt” (erimoq), “freeze” (muzlamoq), “grow” (o‘smoq), “die” (o‘lmoq);
- harakat fe’llari: “arrive” (yetib kelmoq), “fall” (tushmoq), “descend” (pasaymoq);
- mavjudlik va yo‘qolishni ifodalovchi fe’llar: “appear” (paydo bo‘lmoq), “disappear” (yo‘qolmoq), “vanish” (g‘oyib bo‘lmoq).

Yuqorida ta’kidlangan ba’zi anakkuzativ fe’llar (*break, melt, freeze*) ergativ alternatsiya ham hosil qila oladi. Bunda ergativ va anakkuzativni ajratishda asosiy diagnostik mezon - tranzitiv-intranzitiv alternatsiyaning mavjudligidir. Agar fe’l o‘timsiz konstruksiyada yagona argumentni, o‘timli konstruksiyada esa shu

[16] Levin B. On the Nature of Ergativity. Doctoral dissertation. – Massachussetts Institute of Technology, 1983. – 373 p.
[17] Lyons J. Introduction to theoretical linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 536 p.
[18] Hale K., Keyser S.J. Some Transitivity Alternations in English. – Massachusetts Institute of Technology, Monograph, 1986. – P. 605-638.
[19] Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman grammar of spoken and written English. – London: Longman, Monograph, 1999. – P. 379-416.

argumentni obyekt sifatida saqlagan holda sababchi argumentni qabul qilsa, u ergativ alternatsiyani namoyon qiladi. Anakkuzativlik esa o‘timsiz konstruksiyadagi yagona argumentning ichki argument sifatida sintaktik-semantik maqomiga taalluqli. Semantik jihatdan, holatni o‘zgarishini ifodalovchi anakkuzativ fe’llarning ba’zilari, ya’ni “break” (sindirmoq), “melt” (erimoq) va “freeze” (muzlamoq) kabi fe’llar moddiy holatning o‘zgarishini bildiradi; “grow” (o‘smoq) va “die” (o‘lmoq) kabi fe’llar ham o‘zgarishning tugashini yoki rivojlanishini tasvirlaydi. Harakatni ifodalovchi anakkuzativ fe’llar, ya’ni “arrive” (yetib kelmoq) va “fall” (tushmoq) kabilar odatda, faqat voqea yoki harakatning yuz berishini ko‘rsatadi, ammo bu holatlarni amalga oshiruvchi agens mavjud emas. “Descend” (tushmoq) fe’li yuqoridan pastga yo‘naltirilgan harakatni bildiradi va bunda agens yoki harakatni boshqaradigan subyektdan ko‘ra, harakat makoni ko‘proq ahamiyatga ega. Bundan tashqari, mavjudlik va yo‘qolish holatlarini ifodalovchi fe’llar ham anakkuzativ sifatida qabul qilinganini yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Xususan, “appear” (paydo bo‘lmoq) va “disappear” (yo‘qolmoq) fe’llari mavjudlik va mavjud emaslik holatlarini tasvirlaydi, unda agens faqat voqeaning amalga oshishini ifodalaydi, ammo bu jarayonda agensning bevosita ta’siri ko‘rsatilmaydi.

Ishning ikkinchi bobi “Ingliz tilida ergativ fe’llarning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari” deb nomlanadi. Bobning “Ergativ fe’llarning morfologik va sintaktik tarkibi, distributiv xususiyatlari” nomli birinchi faslida ingliz tilidagi ergativ fe’llar o‘ziga xos morfologik ko‘rsatkichlari, sintaktik-semantik va distributiv xususiyatlari muhokamaga tortilgan.

M.Alanning ta’kidlashicha, ingliz tilida ergativ fe’llar, odatda, ikkita asosiy sintaktik xususiyatga ega:[20]

1. Tranzitivlikni o‘zgartirish (Transitivity shift) – ushbu fe’llar o‘timli shaklda ishlatilganda agentiv subyektni (masalan, “*The chef* cooked the meal” – *Oshpaz* taomni pishirdi) belgilaydi. O‘timsiz shaklda ishlatilganda esa, xuddi shu fe’llar subyektni to‘ldiruvchi sifatida ko‘rsatadi, bu esa argument tuzilmasining o‘zgarishini aks ettiradi (masalan, “*The meal* cooked” – *Taom* pishdi)

2. Anakkuzativlikning o‘timsiz ishlatilishi – ergativ fe’llar o‘timsiz ishlatilganda, subyektni obyektdan ko‘ra patsiensga o‘xshash tarzda ko‘rsatadi, bu esa sintaktik tuzilma va morfologik xususiyatlarning o‘zgarishini ko‘rsatadi.

D.Perlmutter ergativ konstruksiyalarning ega va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘zaro aloqani ifodalashda muhim ekanligini ta’kidlaydi. Ayniqsa fe’lni o‘timli va o‘timsiz shakllarda ishlatilishiga urg‘u berib o‘tadi. Bu o‘zgarish sintaktik nazariyaning muhim jihati bo‘lib, sintaktik vazifalar muqim bo‘lmasdan, fe’lning ishlatilishiga qarab o‘zgarishni ko‘rsatadi[21]. D.Perlmutterning tahlili ergativlikni tushunish uchun muhim asos bo‘lsa-da, ingliz tilida sintaktik vazifalar qanday shakllanishini yanada chuqurroq tushunish uchun fe’l ishlatilishidagi nozik farqlarni ham hisobga olish kerak deb o‘ylaymiz.

Ingliz tili grammatikasida ergativ fe’llar o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ko‘p qirrali xususiyatlarga ega. Ergativ fe’llarning grammatik tuzilmasi ergativ tillardagi holat

[20] Alan M. Labile verbs in English. – Stockholm University, 2006. – 232 p.

[21] Perlmutter D. M. Impersonal Passives and the Unaccusative Hypothesis // Proceedings of the Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. – Berkeley University of California, 1978. – P. 157-189.

belgilash bilan kuchli bog‘langan. Ingliz tili kabi nominativ-akkuzativ tillarda, o‘timsiz fe’lning subyekti va o‘timli fe’lning agensi bosh kelishik (nominative case) bilan belgilanadi, ergativ tillar esa o‘timsiz fe’lning subyektini o‘timli fe’lning obyekti bilan bir xil tarzda ko‘rsatadi.

Bobning “Holat va harakat o‘zgarishlarini tavsiflovchi ergativ fe’llar” nomli ikkinchi faslida ergativ fe’llar orqali holat va harakatni boshlanishi, tugashi, natijaviyligi haqida so‘z borgan. B.Levin ergativ fe’llar ifodalagan o‘zgarish turlarini ikki asosiy turkumga ajratadi:

1) Holat o‘zgarishi. Ushbu fe’llar jismoniy xususiyatlardagi o‘zgarishlarni ifodalaydi, masalan, *“break”* (sindirmoq), *“melt”* (erimoq), *“freeze”* (muzlamoq), *“dry”* (quritmoq);

2) Pozitsiya o‘zgarishi. Bu fe’llar fazoviy joylashuvning o‘zgarishini ko‘rsatadi, masalan, *“roll”* (yumalamoq), *“move”* (siljimoq), *“float”* (suzmoq) kabilar[22].

Holat o‘zgarishini belgilovchi omil haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ular Ch.Filmor, B.Levin va M.Hovav, M.Haspelmat kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular ma’lum bir fe’llarning tranzitivlik xususiyati aynan ularning semantik o‘zgarish imkoniyatlari bilan izohlaydilar. Masalan:

She baked the potatoes → The potatoes baked[23]

(U kartoshkani pishirdi → Kartoshka pishdi)

Bundan tashqari, B.Levin va M.Hovav ayrim fe’llar holat o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tranzitivlikda ishtirok etishini ta’kidlaydi:

Tom beamed the flashlight → The flashlight beamed.

(Tom chiroqni yoqdi → Chiroq yondi);

L.Talmi harakat hodisalari tilda ifodalanishini 5 ta asosiy komponentini ajratib ko‘rsatadi:

1) Hodisaning figurasi. Ya’ni, harakatni amalga oshiruvchi yoki ta’sirlangan obyekt (masalan, *“The bird flew”* (Qush uchib ketdi) jumlasidagi *“Bird”* (Qush));

2) Asos. Ya’ni, harakat sodir bo‘ladigan joy yoki sharoit (masalan, “The bird flew over the tree” *(Qush daraxt ustidan uchib ketdi)* jumlasidagi “tree” *(daraxt)*);

3) Harakatning manbai. Ya’ni, harakat boshlanadigan joy;

4) Yo‘nalish. Ya’ni, harakat qaysi yo‘nalishda amalga oshirilayotgani;

5) Hodisaning maqsadi. Ya’ni, harakatning yakuniy maqsadi[24].

L.Talmi bu komponentlarning barcha turlarda mavjudligini, lekin ularning ifodalanishi har bir tilda o‘ziga xos usullarda ifodalanishini ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, L.Talmi harakat fe’llarini tahlil qilishda til va kognitsiya o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi.

Harakat o‘zgarishini ifodalovchi ergativ fe’llarni ularning ifodalovchi jarayoniga qarab bir necha turga ajratish mumkin. Ushbu kategoriyalar, harakatning qaysi jihati o‘zgarayotganiga va tashqi sababning qanchalik rol o‘ynashiga qarab

[22] Levin B., Hovav R.M. Lexical semantics of verbs of motio: The perspective from unaccusativity. Lexical semantics and Syntax – MIT Press, 1992. – 269 p.

[23] Levin B., Hovav R.M. Unaccusativity: At the syntax-lexical semantics interface. – MIT Press, 1995. – 336 p.

[24] Talmy L. Lexicalization patterns: Semantic structure in lexical forms. // Language typology and syntactic description, 1985. №3. – P. 21-146.

farqlanadi. Misol uchun, harakatning boshlanishini ifodalovchi fe’llar labil xususiyatga ega bo‘lib, harakatning o‘z-o‘zidan boshlanishi yoki tashqi kuch orqali ishga tushishini ifodalaydi:

2-jadval.

Start / begin *(boshlamoq)*	
The race started. *(o‘timsiz: Poyga boshlandi)*	The starter started the race. *(o‘timli: Boshlovchi poygani boshladi)*
Set off *(yo‘lga chiqmoq)*	
The journey set off at dawn. *(o‘timsiz: Sayohat tongda boshlandi)*	They set off the journey with a grand parade. *(o‘timli: Ular katta marosim bilan sayohatni boshladilar)*

A.Letuchiy ergativ fe’llarning agens-patsiens chegarasini noaniqligini ta’kidlaydi. U “start” fe’li agensning mavjudligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, asosiy voqea tuzilishini ifodalaydi, degan mulohazaga boradi[25]. Ta’kidlash joizki, harakatning boshlanishi va to‘xtashi semantik jihatdan aspektuallikka va kognitivlikka borib taqaladi.

Bobning “Ergativ fe’llarning funksional vazifalari” nomli uchinchi faslida ergativ fe’llarning o‘ziga xos xususiyati, ularning sintaktik va semantik faollashishi bilan bog‘liq jihatlar hamda funksional vazifalarga oid murakkab hodisalari ochib berilgan. Chunki, ular ko‘p hollarda til nazariyasi, tipologik tilshunoslik va qiyosiy grammatika sohalarida markaziy masalalardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Ergativ fe’llarning funksional vazifalarini o‘rganish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy qo‘llanishga ham ega bo‘lib, ular til strukturasi va uning dinamik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ergativ fe’llar semantik jihatdan ham o‘ziga xos ta’sirga ega bo‘lib, ular odatda ikki asosiy turga bo‘linadi: holatning o‘zgarishi va harakatning o‘zgarishi. Bu fe’llar, voqealarni dinamik tarzda o‘zgarishini ifodalaydi va bu o‘zgarishlar insonlarning hodisalarni qanday tasavvur qilishi va ifodalashini tushunishga yordam beradi.

Holatning o‘zgarishini ifodalovchi ergativ fe’llar, obyektning bir holatdan ikkinchisiga o‘tishini ifodalaydi. Masalan, *“The ice melted”* (Muz eridi) jumlasida, muzning erishi tabiiy va sekin jarayon sifatida tasvirlanadi. Tranzitiv shaklda esa, ya’ni *“The sun melted the ice”* (Quyosh muzni eritdi*)* jumlasida, bu o‘zgarishning agens (quyosh) tomonidan yuzaga kelganligi ko‘rsatiladi. Harakat o‘zgarishini tavsiflovchi ergativ fe’llar esa, ushbu fe’llar harakat yoki joylashuvning o‘zgarishini tasvirlaydi. Intranzitiv shaklda, ya’ni *“The ball rolled”* (To‘p aylandi) jumlasida, harakatning tabiatan sodir bo ‘lishini yoki o‘z-o‘zidan yuzaga kelishi ko‘rsatiladi. Holbuki, tranzitiv shaklda esa, *“He rolled the ball”* (U to‘pni aylantirdi*)* jumlasida, agensning harakatni boshlashi yoki boshqarishi ta’kidlanadi.

Ergativ fe’llarning kognitiv xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular insonlarning voqealarni qanday idrok qilishini nazariy orqali qanday tasavvur qilishini aks ettiradi. B.Levin va R.M.Hovavning ta’kidlashicha, intranzitiv shakl ko‘pincha tabiiy yoki tasodifiy voqealarni, tranzitiv shakl esa tashqi agens

[25] Летучий.А.Б Типология лабильных глаголов. Москва: Языки славянской культуры, 2013. – 408 с.

tomonidan boshqarilgan voqealarni tasvirlaydi[26]. B.Levin va R.M.Hovavning nuqtai nazari o‘rinli bo‘lib, u tilning bizning kognitiv jarayonlarimiz bilan aloqasini yaxshi tushuntiradi. Masalan, *“The tree fell”* (Daraxt qulab tushdi) jumlasi tabiiy voqealarni aks ettiradi, chunki bu hodisa biz uchun tasodifiy yoki tabiiy ravishda sodir bo‘lishi mumkin. Ammo, *“He cut the tree down”* (U daraxtni kesib tashladi) jumlasi orqali biz agensning faoliyatini ta’kidlaymiz. Bu moslashuvchanlik, til orqali bizga voqealarni boshqariladigan yoki tasodifiy ravishda sodir bo‘lishini ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa, tilda qat’iy grammatik qoidalardan tashqari, voqea haqida tafsilotlarni ko‘rsatishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Ingliz tili ergativ fe’llarining ontologiyasi va valentligi”, deb nomlangan. Bobning “Substantivlarning ontologiyasiga “shartlangan” ergativ fe’llar” nomli birinchi faslida ergativ fe’llar bilan bog‘lanib kelgan substantlarning ontologik xususiyatlariga murojaat qilinadi. Ontologik jihatdan holat o‘zgarishi semantikasiga ega ergativ fe’llar argumentning sifatiy o‘zgarishini ta’minlaydi. Bu guruh fe’llarini *cool, darken, brighten, fade, dry, expand, freeze, heal, melt, shrink, stretch* kabilar tashkil etadi. Masalan, *cool* fe’li *“She **cool**ed her tea with a slow and thoughtful motion.”* va *“Supper was **cool**ing on the table.”* (“Pride and Prejudice”, Jane Austen; “100 selected stories”, O Henry) jumlalarida; *darken* fe’li *“…for a moment darkened the pool in which light reflected itself…”* va *“…his eyes darkened, she thought, why should they grow up and lose all that?”* (“To the lighthouse”, Virginia Woolf) jumlalarida; *brighten* fe’li *“The fire brightened the little room and made it cheerful.”* va *“At first sight of him their eyes brightened.”* (“Great expectations”, Charles Dickens; “100 selected stories”, O Henry) jumlalarida ham tranzitiv ham intranzitiv konstruksiyalarda qo‘llanilib obyektning sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazyapti.

Jumladan, ba’zi ergativ fe’llarni ontologik, ya’ni mazmuniy-mantiqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadigan bo‘lsa, substantivlar bilan moslashish imkoniyatiga qarab ergativlik holatini cheklaydigan ba’zi ergativ fe’llarni ekzemplyarlar miqyosida quyidagi kategoriyalarga ajratilishi maqsadga muvofiq.

3-jadval.

Ekzemplyarlar miqyosidagi individual namunalar

№	Ekzemplyarlar	Individual namunalar
1.	Break-type (“sinish” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*break, crack, split, shatter, tear*
2.	Change-type (“o‘zgarish” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*change, expand, shrink*
3.	Motion-type (“harakat” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*move, turn, roll, rotate*
4.	Burn-type (“holat o‘zgarishi” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*burn, freeze, melt, dry, cool*
5.	Color-appearance type (“rang-tus” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*fade, brighten, darken*
6.	Surface-type (“yuza” tipiga mansub ergativ fe’llar)	*bruise, heal, stretch, bend*

Holbuki, yuqoridagi ekzemplyar asosida yoritilgan individual namuna sifatida berilgan ergativ fe’llar, substantlar ontologiyasidan kelib chiqib ba’zi o‘rinlarda o‘zining ergativlik xossasini inkor etadi. Xususan, quyida keltirilgan jadvalda “break” tipidagi ergativ fe’llarning tabiiy (o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holati) va notabiiy (inson ta’sirisiz yuz bermaydigan holati) otlar bilan

[26] Levin B., Hovav M.R., Unaccusativity: At the Syntax-Lexical Interface. - MIT Press, 1995. – 336 p.

mosligi ko‘rsatilgan. Keltirilgan farq ontologik xususiyatlarga, ya’ni narsaning ichki tabiati sinish imkoniyatiga asoslanadi.

Tabiiy ravishda “sinishi” mumkin bo‘lgan otlar va ularning ergativlik holatida ifodalanishi quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan.

4-jadval

Tabiiy ravishda “Sinish” tipiga mansub ergativ fe’llar

Fe’l	Substantiv (ot)	Ergativlik	Misol
break	glass, stick, branch, bone, mirror, plate, window	✓ tabiiy	The glass broke
crack	ice, wall, bone, plate	✓ tabiiy	The ice cracked
split	wood, log, ground, river	✓ tabiiy	The log split
shatter	vase, bottle, mirror	✓ tabiiy	The vase shattered
tear	cloth, paper, fabric	✓ tabiiy	The paper tore

Keltirilgan jadvalda *break, crack, split, shatter, tear* kabi semantikasi buzish, sinish yoki ajralish tipiga mansub fe’llarning tabiiy ergativlik jarayoni tavsiflangan. Har bir fe’l bilan birikadigan substantivlar turli materiallar va obyektlarning fizik va ontologik xususiyatlariga qarab tanlangan bo‘lib, bu fe’llar ularning o‘z-o‘zidan yuz beradigan yoki tashqi ta’sir natijasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, obyektlarning tabiatiga, masalan shisha, yog‘och, muz, mato va shunga o‘xshash materiallarning tuzilishiga qarab fe’lning semantik imkoniyatlari qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Vaholangki, bu jarayon ergativ fe’llarning semantik-valentlik xususiyatlarini tasniflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan fe’llar fizik ma’no jihatdan buzish bilan bog‘liq ergativ fe’llarning tabiiy xususiyatini, ya’ni ularning o‘timsiz qo‘llanilishida agensga ehtiyoji sezilmasligini, shuningdek, fe’l substantiv juftliklari orqali ergativlikning semantik jihatlarini yoritib beradi.

Tabiiy ravishda “sinmaydigan” otlar ergativlik holatida quyidagicha ifodalanadi:

5-jadval

Notabiiy ravishda “Sinish” tipiga mansub ergativ fe’llar

break	leg, desk, chair, car, TV, phone	qisman	***X*** The leg broke (to‘g‘ri variant: His leg broke; bu holatda faqatgina egalik olmoshi bilan birga qo‘llanganda tabiiy)
crack	computer, fridge, door	notabiiy	***X*** The computer cracked (to‘g‘ri variant: He cracked the screen)
split	computer, chair, door, car, phone	notabiiy	***X*** The phone split (to‘g‘ri variant: He split the phone into parts)
shatter	wall, cabinet, table	notabiiy	***X*** The table shattered (lekin, The glass table shattered bo‘lishi mumkin)
tear	book, bag	qisman	***X*** The book tore (lekin This page tore bo‘lishi mumkin)

Yuqorida keltirilgan “sinish” tipiga mansub fe’llar umuman olganda to‘liq ergativ fe’l sifatida agenssiz yoki agensli holatda ham ifodalana oladi. Holbuki, ba’zan substantning ontologik maqomi va tabiati, ya’ni butun-qism munosabatlarida (masalan, *The leg broke* bo‘la olmaydi, chunki *“leg”* tananing bir qismi bo‘lganligi sababli, tabiiy holatda bu jarayon tashqi kuchsiz o‘zi mustaqil ravishda sodir bo‘la

olmaydi) yoki predmetning ichki xossa va xususiyati bunga yo‘l qo‘ymaydi (masalan, *The table shattered* bo‘lishi notabiiy, chunki *“table”* ning moddiy tuzilishi, ya’ni qattiq jismligi uning sinishi uchun tashqi ta’sir bo‘lishini talab etadi) va fe’lning ergativlik munosabatini cheklab qo‘yadi.

Tabiiy ravishda “o‘zgaradigan” va “o‘zgarmaydigan” substantivlar va ularning ergativlik holatida ifodalanishini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin.

6-jadval

“O‘zgarish” tipiga mansub ergativ fe’llarning tabiiy yoki notabiiy holatlarda ifodalanishi

Fe’l	Substantiv (ot)	Ergativlik	Misol
change	weather, temperature, situation, color, shape	tabiiy	The weather changed
	rock, stone, building	kontekstga bog‘liq	*The building changed* oddiy matnda notabiiydek taassurot qoldiradi, lekin konteksdan kelib chiqib *The building changed dramatically after the renovation* jumlasini tabiiy deb baholash mumkin. Demak, kontekstsiz holatda ontologik-semantik jihatdan kam prototipik.
expand	balloon, metal, lung, universe	tabiiy	The metal expanded in the heat
	dress, statue	kam prototipik	*The dress expanded* jumlasi kam prototipik (to‘g‘ri variant: The dress shrank)
shrink	cloth, wool, balloon	tabiiy	The cloth shrank after washing
	country	kam prototipik	***X*** The country shrank (to‘g‘ri variant: The country’s population/economy shrank)

Ko‘rinadiki, *“change-type”* sinfiga mansub fe’llarda ergativlikning qo‘llanilishi obyektning ontologik o‘zgaruvchanligiga bog‘liq. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatib turibdiki, tarkibi dinamik, tabiiy jarayonlarga bo‘ysunadigan, o‘z-o‘zidan o‘zgarishi mumkin bo‘lgan substantlar (weather, mood, situation, color, balloon, metal, wool) ergativ konstruksiyada tabiiy va mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi: *The weather changed; The metal expanded; The cloth shrank.*

Bobning “Monovalent ergativ fe’llar tavsifi” nomli ikkinchi faslida ergativ fe’l xususiyatlarini o‘rganishda fe’lning valentligi, ya’ni uning asosiy sintaktik aktantlari soni va ularning semantik rollariga murojaat qilingan. G.Otei va K.Haudening ta’kidlashicha, ergativ fe’l tuzilmalarida fe’llarning valentlik xususiyatlari va ularning o‘zgarishi an’anaviy nominativ-akkuzativ tizimdagi turlaridan keskin farq qiladi[27]. Xususan, ergativ konstruksiyalarda fe’lning agens (A) va patsiens (P) bilan bog‘lanishi, shuningdek, o‘timsiz fe’llarning yagona argumenti (S) bilan munosabati o‘ziga xos qoidalar asosida amalga oshadi[28]. Ergativ fe’llarning valentlik jihatidan ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin: monovalent (bir valentli)

[27] Authier G., Haude K. Ergativity, Valency and Voice.– Berlin: De Gruyter Moution, 2011. – 386 p.
[28] Authier G., Haude K. Ergativity, Valency and Voice. – Berlin: De Gruyter Moution, 2011. – 386 p.

va polivalent (ko‘p valentli) fe’llar. Monovalent ergativ fe’llar faqat bitta asosiy argumentni, ya’ni S ni talab qiladi. Bu fe’llar odatda hodisani, holatni yoki o‘z-o‘zidan amalga oshadigan harakatni ifodalaydi. Valentlikning o‘zgaruvchanligi ingliz tili ergativ fe’llarida labillik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, valentlikning o‘zgarishi fe’lning turli sintaktik kontekstlarda valentlik darajasini o‘zgartirish qobiliyatiga bog‘liq va bu hodisa ingliz tilidagi ergativ fe’llarda keng tarqalgan.

Monovalent ergativ fe’llarning valentlik xususiyati ularning bitta majburiy argumentni talab qilishi bilan belgilanadi. Ularni aniqlashda valentlik, semantik rol, holat o‘zgarishi va sintaktik alternatsiya mezonlari asos qilib olinadi. Bunda yagona argument odatda, tema yoki patsiens vazifasida bo‘lib, holat yoki vaziyat o‘zgarishini boshdan kechiradi hamda fe’l o‘timli va o‘timsiz konstruksiyalarda qo‘llanishi mumkin. Shu jihatdan monovalent ergativ fe’llar yagona argumenti agens sifatida namoyon bo‘ladigan unergativ fe’llardan farqlanadi.

Bir valentli ergativ fe’llarga sintaktik sodda struktura sifatida emas, balki murakkab mexanizm sifatida ham qarash muhim. Monovalent ergativ fe’llarning muhim jihatlaridan biri ularning sintaktik-semantik jihatlarida ham namoyon bo‘ladi. Xususan, agenssizlanish va diqqatning ko‘chishini olaylik. Gap strukturasidan agensni grammatik chetlashtirish va diqqatni patsiensga ko‘chirish bilan sintaktik gap hosil qiladi, buni quyidagi mexanizm orqali ifodalash mumkin:

(Agens) + fe’l + (Patsiens) → (Patsiens) + fe’l

Natijada, voqelikga bo‘lgan nuqtai nazarda almashinuv sodir bo‘ladi. Bunda, kauzativ nutqai-nazardan: Kimdir nima qildi? *The boy broke the window;*

ergativ nuqtai-nazardan: obyekt bilan nima sodir bo‘ldi? *The window broke,* ya’ni bu holat agens qo‘shilishi mumkin bo‘lgan majhul nisbat emasligi ayon, aksincha agens sintaktik strukturadan to‘liq o‘chirilgan.

Kognitiv xususiyatlariga ko‘ra, agens o‘zining ichki potensialiga ega, ya’ni voqelik tashqi ta’sir natijasi sifatida emas, balki patsiensning holati yoki ichki xossalarining faollashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, *The ice melted* jumlasi ergativ holatda patsiensning ichki xossasiga ko‘ra namoyon bo‘ladi, ya’ni muzning erishi uning xususiy tabiatiga bog‘liq ravishda ma’lum bir haroratda modda (substant)ning bir agregat holatidan ikkinchi agregat holatiga o‘tish xossasi amalga oshishini ifodalaydi. Kauzativ holatda esa *The sun melted the ice* jumlasida esa patsiensning “erish”i quyosh (agens) ta’sirida kechayotganligini ko‘rish mumkin.

Labillik xususiyatlariga ko‘ra, bir valentli sifatida ham qo‘llaniladigan ergativ fe’llar xuddi shu fe’lning morfologik shaklini o‘zgartirmasdan ikki xil sintaktik modelda (o‘timli va o‘timsiz) ishlatila oladi. Masalan, *I must break this habit* (Men bu odatni yo‘qotishim kerak) konstruksiyasida *break* fe’li o‘timli va ikki valentli (*I, this habit*), *Old habits break hard* (Eski odatlar qiyin yo‘qoladi*)* jumlasida esa o‘timsiz ravishda bir valentli fe’l sifatida qo‘llanilgan.

Quyida keltirilgan 8-jadvalda bir valentli ergativ fe’llarning muhim xususiyatlari bo‘yicha ifodalanishi keltirilgan.

7-jadval

Monovalentli ergativ fe’llarning funksional vazifalari

Lingvistik	Bir valentli qo‘llanilishning xususiyatlari	Misol

jihatlari		
Sintaktik	Agenssiz, patsiensga ega	*The vase broke*
Semantik	Holat o‘zgarishiga urg‘u berish, (ta’sirga emas)	*The ice melted*
Kognitiv	Obyektning ichki imkoniyatini aks ettirish	*The door opened* (o‘z-o‘zidan)
Pragmatik	Bilvosita nutqiy akt (tanqid, shikoyat)	*This key won’t turn!*
Diskursiv	Hikoyani rivojlantirish uchun patsiensni temaga aylantirish	*The situation changed...*
Ontologik	Tabiiy jarayonni ifodalash	*The soup cooled.*

Ko‘rinib turibdiki, bir valentli ergativ fe’llar holat yoki vaziyat o‘zgarishini mustaqil jarayon sifatida konseptuallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda semantik va kognitiv tahlil o‘zaro farqlanadi. Semantik tahlilda fe’l argumentlarining tematik rollari, xususan, agens va patsiens kabi munosabatlari aniqlansa, kognitiv tahlilda ushbu rollarning inson tomonidan voqea-hodisaning konseptual idrok etilishi bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Masalan, *John broke the glass* konstruksiyasida semantik jihatdan *John* – agens, *the glass* – patsiens hisoblansa, kognitiv jihatdan hodisa [sababchi =>ta’sir =>holat o‘zgarishi] konseptual modeli asosida shakllanadi. *The glass broke* konstruksiyasida esa [obyekt =>holat o‘zgarishi] modeli yuzaga kelib, tashqi sababchi konseptual jihatdan markaziy o‘rindan chiqariladi.

Bobning “Polivalent ergativ fe’llar tavsifi”, deb nomlangan uchinchi faslida polivalentli ergativ fe’llarga e’tibor qaratilgan. Polivalent ergativ fe’llar kamida ikkita asosiy argumentni – A (agens) va P (patsiens)ni talab qiladi. Bu guruhga ko‘plab tranzitiv, ya’ni o‘timli fe’llar kiradi. Ergativ tizimda A (agens) ergativ yoki o‘xshash belgi bilan, P (patsiens) esa absolyut holatda ifodalanadi. G.Otie va K.Haudening ta’kidlashicha, ko‘p hollarda ergativ tilda fe’lning valentligi uning morfologik shakli orqali ham ifodalanadi[29]. D.Kreylsning fikrlariga ko‘ra, ergativ tizimli tillarda fe’l valentligining o‘zgarishi ko‘p hollarda kauzativ/anakkauzativ almashinuvi, aniq/majhul nisbat o‘zgarishi, obyekt/subyekt pozitsiyasi o‘zgarishi kabi jarayonlar orqali yuz beradi[30]. Demak, ingliz tili ergativ fe’llari ham valentlik jihatdan sezilarli darajada moslashuvchan bo‘lib, ular bir nechta struktur-semantik jarayonlar orqali o‘zgarib boradi. Kauzativ/anakkauzativ almashinuvi ergativ fe’llarning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, masalan, *open, break, melt, freeze* kabi ergativ fe’llar orqali tashqi sababli va sababsiz holatlar o‘rtasida valentlik almashishi kuzatiladi. Aniq va majhul nisbatlarda esa, agensning grammatik vazifasini o‘zgartirib, obyektni subyekt pozitsiyasiga ko‘taradi.

G.Shendl valentlikni fe’lning eng muhim semantik-sintaktik xususiyatlaridan biri sifatida talqin qiladi. Tilshunosning fikricha, har bir fe’l o‘zining leksik ma’nosiga ko‘ra ma’lum miqdordagi argumentlarni talab qiladi va aynan shu argumentlar fe’lning valentlik imkoniyatlarini belgilaydi. Valentlik faqat grammatik

[29] Authier G., Haude K. Ergativity, Valency and Voice. – Berlin: De Gruyter Moution, 2011. – 386 p.
[30] Creissels D. Valency properties of Madinka verbs. – University Lumiere, 2015. – P. 1-34.

bog‘lanishlar bilan cheklanib qolmay, balki fe’lning semantik tabiati bilan ham uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi va ikki yoki polivalentlikni tahlil qilishda komplement (to‘ldiruvchi) va adyunkt (qo‘shimcha) tushunchalarini farqlaydi. Tilshunosning ta’kidlashicha, to‘ldiruvchi fe’lning semantik tuzilishi tomonidan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ishtirok etmasa, fe’lning ma’nosi to‘liq realizatsiya qilinmaydi. Adyunktlar esa, fe’lning asosiy semantik tuzilishiga kirmaydigan, ixtiyoriy qo‘shimcha ma’lumotlarni ifodalovchi birliklar deb ta’kidlanadi. Masalan, vaqt, joy, sabab yoki usulni bildiruvchi komponentlar aksariyat hollarda adyunkt vazifasini bajaradi va ular gapda tushirib qoldirilganda ham fe’lning asosiy mazmuni saqlanib qoladi.

Misol uchun, *sell* fe’lini olaylik: *“He sold the house to a stranger for a small sum”* (Charles Dickens, “Great Expectations”) jumlasida,

the house va *to a stranger* - komplementlar;

for a small sum – adyunkt.

Ingliz tilining sintaktik tizimida fe’lning gapdagi boshqa unsurlar (argumentlar) bilan bog‘lanishi uning valentligi deb ataladi. Valentlik predikat-argument strukturasining asosiy tushunchasi bo‘lib, u fe’l bilan uning bog‘lanishi mumkin bo‘lgan predikatlar (asosan, ot yoki otli iboralar) o‘rtasidagi strukturali munosabatni ifodalaydi[31]. Shunday qilib, ingliz tilidagi fe’llar ularning qabul qilishi mumkin bo‘lgan argumentlar soniga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. Bir argument (ya’ni, ega vazifasidagi to‘ldiruvchi) bilan ishlatilgan fe’llar monovalent, ikkita (yoki undan ko‘p) argument (ega va to‘ldiruvchi(lar)) bilan ishlatilgan fe’llar polivalent, ya’ni ko‘p valentli fe’llar deb ataymiz. Masalan, *“Bathsheba changed her dress before the party”* (“Far from the Madding Crowd”, Thomas Hardy) jumlasida *“change”* ergativ fe’li ikki valentli bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri obyekt, ya’ni to‘ldiruvchi va atoqli ot sifatida ega ifodalangan.

Ba’zi ergativ fe’llar kontekstda qo‘shimcha argument talab qilishi ham mumkin. B.Levin buni “extended argument structure”, ya’ni kengaygan argument tuzilishi deb nomlaydi[32].

Misol uchun, *roll* fe’li polivalent ergativ fe’l sifatida *They will roll the ball down the hill*[33] jumlasida agens – u; patsiens - to‘p; qo‘shimcha (ixtiyoriy) argument – tepalikdan pastga deb tahlil qilinadi. Darhaqiqat, bundan ko‘rinib turibdiki, ergativ fe’lning o‘zagi o‘zgarmaydi va faqat unga qo‘shilayotgan argumentlar gapning vazifa turlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, ikki valentlilikni bir valentlikdan ajratilgan holda o‘rganish yoki tahlil qilish maqsadga muvofiq emas. Ergativ ifodaning to‘liq modelini

$$(\text{Agens}) + \text{fe'l} + (\text{Patsiens}) \rightleftarrows (\text{Patsiens}) + \text{fe'l}$$

kabi struktura orqali ifodalash mumkin. Bunda, ikki valentli kauzativ model va bir valentli inxoativ model ifodalangan. Ikki valentli ergativ fe’llarning alohida sinfi

[31] Lamidi M.T. Aspects of Chomskym Grammar. – Ibadan: University Press Plc, 2000. – 211 p.

[32] Levin B. English verb classes and alternations: A preliminary investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 366 p.

[33] Andrew R., English Syntax: An introduction. – Cambridge University Press, 2004. – 258 p.

emas, balki ularning o‘zlari alohida, bir valentli konstruksiyada ham ishlatilishi mumkinligi va ular labil fe’lning kauzativ konstruksiyasida ham ifodalanishi mumkinligi ko‘p bora ta’kidlanadi. Shuningdek, ikki valentli ergativ fe’llarning grammatik struksturasi o‘zida perspektivaning almashinuvi haqida ma’lumot beradi, ya’ni ikki valentli ergativ fe’llar sintaktik jihatdan o‘zining tegishli juftligi bilan birgalikda qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Bunda, S (ega) + V (fe’l kesim) + O (to‘ldiruvchi) shakli kauzativ (ikki valentli) va S (ega vazifasidagi to‘ldiruvchi) + V (fe’l kesim) shakli inxoativ (bir valentli) bo‘lib, ularning sintaktik xossalari argumentlarning taqsimlanishi, ko‘chish jarayonidagi ma’lum bir xususiyatlari va to‘ldiruvchi turlariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Semantik jihatdan esa diqqat agensga emas balki kauzativ jarayonning o‘ziga qaratilgan bo‘ladi, shuningdek, voqelikni sabab (agens) va oqibat (patsiens)larga ajratadi va kauzal munosabatlarni tilda chuqur ma’noda ifodalash uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, *The sun melted the ice*[34] jumlasida *“melted”* faqatgina oddiy harakatni yoritib qolmasdan ikkita, ya’ni “quyosh issiqlik tarqatyapti” va “muz suyuq agregat holatga o‘tdi” hodisalarining o‘rtasidagi kauzal bog‘lanishni ifodalaydi. Binobarin, ergativ fe’llarning valentlikning almashinuviga bo‘lgan qobiliyati tasodifiy hodisa bo‘libgina qolmay, bunday turdagi fe’llarning semantik jihatdan boyligi deb ham ta’kidlash mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

1. Ingliz tilida ergativ fe’llar til tizimining sintaktik, semantik va kognitiv sathlari kesishgan nuqtada joylashgan murakkab lisoniy hodisa sifatida baholanadi. Xususan, harakat va holat o‘zgarishini ifodalovchi ergativ fe’llar voqea-hodisalarning boshlanishi, rivoji, to‘xtashi, yo‘nalish, tezlik o‘zgarishini tasvirlashda, dinamiklik va statiklik maqomini belgilashda ushbu turdagi fe’llarning o‘ziga xosligi ularning o‘timsiz va o‘timli konstruksiyalar o‘rtasida erkin almashinish imkoniyati bilan belgilanadi, bu esa ingliz tili sintaksis va semantikasining moslashuvchanligini namoyon qiladi;

2. Ergativ fe’llarning sintaktik tizimdagi o‘rni ularning valentligidagi o‘zgarishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Intranzitiv konstruksiyalarda ergativ fe’llar faqat subyekt bilan bog‘lanib, holat yoki jarayonning tabiiy kechishini ifodalaydi. Tranzitiv konstruksiyalarda esa voqea tashqi kuchning ta’sirida yuzaga chiqayotganligini bildiradi. Shu jihat ergativ fe’llar orqali agentivlikning kuchayishi yoki kamayishi nutq vaziyatiga qarab boshqarilishini ko‘rsatadi;

3. Semantik jihatdan ergativ fe’llar voqea-hodisalarning sabab-natija munosabatini aniqlashda muhim vosita sifatida ishtirok etadi. Ular orqali hodisalar tabiiy ravishda sodir bo‘layotgan jarayon sifatida (intranzitiv shaklda) yoki tashqi agens aralashuvi natijasida kelgan voqea sifatida (tranzitiv shaklda) talqin qilinadi. Bu dualizm til sathlari tomonidan voqea-hodisalarni yanada aniq, maqsadli va izohli tarzda ifodalash imkonini berishda xizmat qilishi kuzatildi;

[34] Anke H., English labile verbs and their equivalents in Swedish, Universiteit Gent // Dissertation work. – 2015-2016. – 70 p.

4. Kognitiv va pragmatik jihatdan ergativ fe’llar so‘zlovchiga e’tibor markazini tanlash imkonini beradi. Nutqda zarur bo‘lganda natija markazga chiqariladi, zarur bo‘lmaganda esa agens yashiriladi yoki aksincha ko‘rsatiladi. Shu tariqa ergativ fe’llar kommunikativ samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi;

5. Ontologik chegaralangan xususiyatli ergativ fe’llar jismoniy, tabiiy va biologik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalashi ta’minlovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ularning intranzitivlik belgisi orqali faollashganda kuzatiladi. Metaforik yoki abstrakt kontekstlarda ular ko‘p hollarda intranzitiv shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu holat ergativ fe’llarning semantik imkoniyatlari kengligi, kontekstga moslashuvchanligi, tranzitiv strukturalarda esa agens va patsiens munosabatlarini bog‘lovchi jihat ekanligi bilan aloqador sanaladi;

6. Ergativ fe’llarning valentlik xususiyatlari ularning sintaktik-strukturaviy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ingliz tili sintaksisida fe’lning argumentlar bilan bog‘lanish darajasi uning valentligi sifatida baholanadi. Monovalent ergativ fe’llarda jarayonning tabiiyligi, agensning ishtirokisiz voqelikning sodir bo‘lishi asosiy semantik belgi sanaladi. D.Kreylsning tasniflari asosida monovalent ergativ konstruksiyalar sintaktik jihatdan sodda bo‘lishiga qaramay, ichki sabab-natija modelini mujassam etuvchi murakkab semantik struktura ekanligi aniqlanadi;

7. Polivalent ergativ fe’llarda esa fe’lning semantik maydoni kengayib, bir nechta argumentlarni o‘ziga tortish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday fe’llar bir vaqtning o‘zida ergativlik va polivalentlik xususiyatlarini mujassam etadi. Fe’lning bir necha ishtirokchisiga ega bo‘lishi nutqda ma’lumotning zichligini oshiradi, murakkab hodisalarni sodda strukturada ifodalash imkonini yaratadi va agens-patsiens munosabatlarini keng semantik diapazonda yoritadi;

8. Ergativ fe’llarning morfologik xususiyatlari ham ularning o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Ingliz tilida ergativ fe’llar uchun maxsus morfologik belgi bo‘lmasada, *-en, -ify, -ize, -ate* kabi affikslar orqali yasaladigan ergativ fe’llar ergativlikning morfologik mexanizmlar orqali ham rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu jihat ergativlik faqat sintaktik emas, balki derivatsion jarayonlar bilan ham bog‘liqligini tasdiqlaydi;

9. Ingliz tilida ergativ fe’llar harakat, agentivlik va natija munosabatlariga ega ko‘p funksional hodisa sifatida amal qiladi. Bu fe’llarning semantik, sintaktik tarkibi kognitivlikka aloqador bo‘lib, ular anglatgan ma’no idrok orqali ochib beriladi. Shu sabab ular fe’llarning agens va patsiens bog‘liqligidagi modelini hosil qiladi.

10. Ingliz tilidagi ergativ fe’llarning sintaktik, semantik, pragmatik, diskursiv, ontologik va valentlik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida yoritib beriladi. Bu turga mansub fe’llar grammatik hodisa sifatida nafaqat predikativ asosning semantik jihatdan valentlik imkoniyatini belgilovchi murakkab tizimni ifodalashi, jumladan, sintaktik darajada tilning ifodalilik imkoniyatlarini boyitishi nazarda tutiladi.

11. Tadqiqot natijasida, ingliz tilidagi ergativ fe’llarning leksik-sintaktik tabiati, semantik va kognitiv xususiyatlari va valentlik imkoniyatlari aniqlandi. Ularning boshqa fe’llardan (anakkuzativ, kauzativ, unergativ) farqlovchi mezonlar asoslandi, o‘timli va o‘timsiz konstruksiyalardagi argument tarkibi va valentlik almashinuvi ochib berildi. Shuningdek, ergativ fe’llarning ontologik shartlanganligi,

argumentlarning tematik rollari va predikatning konstruktiv-sintaktik realizatsiyasi bilan bog‘liqligi aniqlandi.

THE SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREE PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 UNDER THE SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

KARSHIEVA SHOKHISTA KHOLIKUL KIZI

SEMANTICS AND VALENCY OF ERGATIVE VERBS IN ENGLISH

10.00.04 – National Languages and Literatures of European, American and Australian Nations

DISSERTATION ABSTRACT
for the Doctor of philosophy degree (PhD) in PHILOLOGICAL sciences

Samarkand - 2026

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy on philological sciences (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under registration number №B2024.2.PhD/Fil4591.

The dissertation was completed at the Samarkand State Institute of Foreign Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website of the Scientific Council www.samdchti.uz and on the information network "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Mirsanov Gaybullo Kulmurodovich** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Official opponents:	**Sulaymonova Nilufar Jabborovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
	Davlatova Muhayyo Hasanovna Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Leading organization:	**Jizzakh State Pedagogical University**

Defense of the dissertation will take place at the meeting of the Scientific Council PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 at the Samarkand State Institute of Foreign Languages on «27» November, 2026 at 10⁰⁰ (Address: 140117, Uzbekistan, Samarkand, Gagarin street, 43. Phone: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

The dissertation can be accessed at the Information Resource Center of the Samarkand State Institute of Foreign Languages (Registration number 66780). Address: 140117, Uzbekistan, Samarkand, Gagarin Street, 43. Phone: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

The abstract of the dissertation is distributed on «6» November 2026.
(Protocol of the register № 66 on «6» November 2026).

B.A. Kholikov
Chairman of the Scientific Council on awarding scientific degree, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

U.U. Kuldoshov
Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degree, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

D.A. Kiselyov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council on awarding scientific degree, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In modern linguistics, the scope of approaches aimed at understanding the factors shaping the structural and semantic properties of the verb has been steadily expanding. In particular, the cognitive approach plays a significant role in identifying semantic inconsistencies in verbs, as it takes into account the course of events, human cognition, and human perception. Therefore, from a cognitive perspective, it has become increasingly relevant to identify distinctions at the grammatical, lexical, structural, and semantic levels of the verb, as well as exceptional cases that deviate from established rules. This approach contributes to revealing the fundamental factors underlying the transitivity and intransitivity of verbs. Furthermore, the fact that the valency properties of ergative verbs differ from those of other verbs, together with the need to reveal their lexical-semantic structure and functional potential within sentence structures, determines the relevance of the present study.

In global linguistics, the verb system is studied in terms of its functions, structural-semantic relations, and lexical-grammatical derivational aspects, as well as one of the important sources activating speech structures. In organizing the lexical-grammatical level, the paradigmatic and syntagmatic properties inherent in verbs, the nature of the relationship between transitivity and intransitivity, and the identification of semantic changes in verbs remain among the most important research objectives. Since the class of ergative verbs constitutes an open system and, unlike other groups of verbs, represents a complex linguistic phenomenon, there is a pressing need to investigate its functional-semantic status.

In recent years, within the framework of New Uzbekistan, particular attention has been paid to foreign languages, especially the fundamental features of the English language. Issues related to English syntax, semantics, and valency – particularly their manifestation in English ergative verbs and constructions and their representation through various interpretations – have proven to be among the most pressing research problems. This necessitates an in-depth investigation of the semantic features of ergative verbs in basic grammatical constructions, as well as the use of ergative verbs and their specific characteristics in scholarly articles and literary works.

The Decree “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030” emphasizes, based on international experience, the introduction of advanced standards in higher education, including a gradual transition to an education system oriented toward the acquisition of theoretical knowledge within academic curricula.[35] This, in turn, creates a need to enrich modern linguistics with innovative principles and criteria.

The present dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks set out in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019, “On Approval of the Concept for

[35] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan №. PF-5847 dated October 8, 2019, “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”. // *Xalq so‘zi*, October 9, 2019, №. 209 (7439).

the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; Resolution No. PQ-4884 dated November 6, 2020, "On Additional Measures to Further Improve the System of Education and Upbringing"; Resolution No. PQ-5117 dated May 19, 2021, "On Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Stage"; Decree No. PF-60 dated January 18, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", as well as other relevant decrees, resolutions, and regulatory and legal documents in this field.

The accordance of research with the priorities of the development of science and technology of the Republic. The dissertation was carried out in accordance with Priority Area I: "Formation of a system of innovative ideas and mechanisms for their implementation aimed at the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and democratic state."

The extent of study of the problem. In world linguistics, determining the cognitive foundations of the functional status of the verb—particularly identifying its semantic and valency properties—has for many years remained one of the leading research directions. In this respect, the scholarly works of European and American linguists such as R.Jackendoff, V.Evans, R.Langacker, L.Talmy, G.Lakoff, B.Levin, M. Shibatani, and B.Comrie, J.Pustejovsky[36] serve as an important theoretical basis for elucidating the lexical-semantic structure, argument structure, and conceptual foundations of the verb. These studies provide a comprehensive analysis of the semantic roles of verbs, the mechanisms of encoding actions and states, as well as the cognitive relationships between the verb and its participants. The phenomenon of ergativity, which arises in connection with the transitive and intransitive properties of verbs, has been interpreted from various theoretical perspectives in the works of scholars such as R.Dixon, O.Jespersen, M.Allan, J.Lyons, C.Fillmore, R.Hovav, W.Croft, A.Kibrik, A.Letuchiy, I.Meshchaninov, V.Vinogradov, N.Arutyunova and E.Moravcsik.[37] Their research offers an in-depth analysis of the semantic structure of

